

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMA MUAMMOLARI FRANSUZ ZOOKOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARI O'ZBEK TILIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA

*Toshkent amaliy fanlar universiteti chet tillar  
kafedrasida o'qituvchisi Nuritdinov Navro'z*

**Kalit so'zlar:** frazeologizmlar, sinonim, ekvivalent, klassifikatsiya, ma'no, lug'at, stilistika, metod.

**Annotatsiya** Mazkuz maqolada fransuz tilida ko'p ishlariladigan frazeologizmlarning o'zbek tilidagi tarjima va muqobillari, tarjima va muqobillarini topishda yuzaga keladigan muammoli holatlar nomutanosibliklar, tarjimadagi variantlilik holatlaridan eng muqobilini tanlab olish haqida fikr yuritilgan.

Frazeologiya sohasi tilshunoslikda juda keng qamrovda o'rganilgan va o'rganilayotgan soha hisoblanadi. Frazeologizmlar barcha tillarda tuzulishi va bajaradigan funksiyasi jihatdan umumiy deb qaraladi. Frazeologiyaning anchayin qiyin bo'lishiga frazeologik birliklarning tarjimasi sabab bo'lib, bu sohani tadqiq etish borasida kattagina tajriba va mahorat talab etadi. Frazeologiya frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni o'rganish metodlarini, klassifikatsiyasini, frazeologizmlarni lug'atlarda berilishini ishlab chiqadi.

Frazeologik birliklar tarjima jarayonida bir qator murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Frazeologizmlar murakkabligi quyidagilarga bog'liq:

1. Bir xil moddiy ma'noga ega bo'lgan so'zlar turli tillarda turlicha ma'no va stilistik funksiyalarni bajaradi,

2. Bunday so'zlar turli tillarda turli so'zlar bilan birikib keladi. har bir tarjimon frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida o'z tili qonun-qoidalari, millati madaniyati, mentaliteti, urf –odatlarini, turmush tarzidan kelib chiqib yondashadi. Boshqacha qilib aytganda tarjimon uchun frazeologik birlikni tarjima qilishda birinchi navbatda frazeologizmning obrazini berish muhim, uning til tuzilishini emas(1)

Bugungi kunda deyarli hamma tillarda frazeologik lug'atlar mavjud va ularning aksariyati bir necha tildagi frazeologik birliklarning tarjimasi tarjima ko'rinishlari dan foydalanilgan holda berilgan

1. Ekvivalent tarjima, ya'ni o'zbek tilida mavjud adekvat qurilma boshqa tildagi qurilma bilan ma'no-mazmun va obraz asosi jihatidan mos kelishi.

2. Analog tarjima. ya'ni o'zbek tilidagi shunday turg'un iboralar ma'nosini ingliz tiliga adekvat lekin obraz asosi jihatidan undan qisman yoki to'liq farq qilishi.

3. Tasviriy tarjima ya'ni boshqa tildagi iboraning ma'nosini erkin so'z birikmalari bilan berish yo'li tarjima qilish. Tasviriy tarjima o'zbek tilida ekvivalent va analoglar mavjud bo'lmaganda qo'llaniladi

4. Antonomik tarjima ya'ni salbiy ma'noni ijobiy qurilma yordamida berish yoki teskarisi.

5. Kalkalash metodi frazeologizmlarning obrazlilikini ajratib ko'rsatish uchun yoki inglizcha ibora boshqa tarjima turlari bilan tarjima qilib bo'lmaganda tarjimon tomonidan ishlatiladi.

6. Aralash tarjima. O'zbek tilidan tarjima inglizcha frazeologizmning ma'nosini to'liq berolmaganda yoki vaqt, makon kabi o'ziga xos koloritga ega bo'lganda kalkalash tarjimasini beriladi, so'ngra tasviriy tarjima beriladi va o'zbekcha analog qiyoslanadi. (2)

Lug'atlarda eng ko'p qo'llaniladigan usul bu ekvivalent tarjima hisoblanadi ekvivalentlar ikki qismga bo'linadi va ular to'liq va qisman bo'lishi mumkin.

1) To'liq ekvivalentlar- shunday tayyor ekvivalentlarki ular o'zbek tilidagisi bilan ma'nosi, leksik tarkibi, obrazlilik, stilistik boyoqdorligi va grammatik tuzulishi bilan mos tushadi;

Ho'kizdek baquvvat - fort comme un bœuf

*tulkiday ayyor - ruse comme un renard*

*xo'rozdek kekkaygan - fier comme un coq (3)*

yuqoridagi frazeologizmlarda inson xarakteri yoki xususiyati qaysidir hayvonxususiyati bilan izohlanayapti .

2) Qisman frazeologizm ekvivalentlarni tarjima qilishda, frazeologizmlarning ma'nosi va obrazlilikini tarjimada qisman yoki to'liqsiz berish degani emas. Bu

atama ostida shu narsa nazarda tutilganki, taklif etilayotgan boshqa tildagi ekvivalentlar o'zbek tilidagisi bilan biroz farqlanishi mumkin. Bunda ko'p hollarda bir element boshqa bir element bilan almashadi xolos quyidagi misollarda faqat hayvon nomlari almashgan xolos .

**G'ozday kekkaygan - fier comme un paon** (fransuz tilida tarjimasini) tovusdek kekkaygan yoki mag'rur

Baliqdek jim -muet comme une carpe (fransuz tilida tarjimasini) karpdek jim dengiz joniviri.

O'z navbatida qisman ekvivalentlarni uch guruhga ajratish mumkin:

**Birinchi guruhga** ma'nosi, stilistik boyoqdorligi va obrazlilik yaqinroq bo'lgan ammo leksik tarkibi farq qiluvchi frazeologizmlar kiradi:

**Ikkinchi guruhga** ma'nosi obrazlilik, leksik tarkibi va stilistik boyoqdorligi bilan mos tushuvchi lekin ba'zi formal belgilari, so'z tartibi, son kabilar farq qiluvchi frazeologizmlar kiradi.

**Uchunchi guruhga** hamma belgilari mos tushadigan ammo obrazlilik mos tushmaydigan frazeologizmlar kiradi.

**Biri bogdan biri togdan kelmoq - sauter du coq à l'âne** fransuz tilidagi tarjimasi xo'rozdan eshshakka sakramoq

Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida tarjimon turg'un yoki o'zgaruvchan so'z birikmasi bilan ishlayotganini farqlay olishi kerak. Buning uchun u katta bilimga ega yoki "frazeologizmlarni qabul qilish manbaasiga" ega bo'lishi lozim. Shuni nazarda tutish kerakki, so'z birikmalarga, xuddi so'zlar kabi, ko'p ma'nolilik va omonimiya hodisasi mavjud, shunday bo'lsada ma'nolardan biri va boshqasi frazeologizm omonimi bo'lishi mumkin.

#### Adabiyotlar

1. Виноградов В.С. Введение в переводоведение. – М., 2001.
2. Скоробогатова Т.И., Манаенко Е.А. Современные французские фразеологизмы-цитаты и источники их возникновения // Известия Южного федерального университета. Филологические науки. 2017. № 1. С. 61-68.
3. Komissarov V.N. Sovremennoye perevodovedeniye. – М., 2001
4. Sh. Rahmatullaev .O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati – T.,1978
5. Ismoilov G. Zoocomponentli phraseologik birliklarning ethnomadaniy hususiyatlari // Ozbek tilshunosliging dolzarb masalalari. N. 7. -Tashkent: 2013